KARIMOVA Nilufar,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi

FESTIVAL TUSHUNCHASI VA ULARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): KARIMOVA N. Festival tushunchasi va ularning ilmiy-nazariy asoslari // Madaniyat ta'limi – Культурное образование – Cultural Education. № 2 (2026) B. 123.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada festival tushunchasining kelib chiqishi, madaniy-ijtimoiy tabiati hamda uning ilmiy-nazariylashuv jarayoni tadqiq etiladi. Maqola doirasida festival tushunchasi shunchaki ko'ngilochar tadbir emas, balki jamiyatning madaniy o'zligini namoyish etish, ijtimoiy birlashuv va qadriyatlarni avloddan-avlodga o'tkazish mexanizmi sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiqotda mahalliy va xorijiy olimlarning festival hodisasiga doir nazariy qarashlari, uning tipologiyasi hamda zamonaviy madaniyatshunoslik va san'atshunoslikdagi o'rni yoritib berilgan. Maqolaning natijalari festival harakatlarini rejalashtirish, o'rganish va ularning ijtimoiy-madaniy ta'sirini baholashda nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *festival, ilm-fan, tadbir, jamiyat, mexanizm, madaniyatshunoslik, ijtimoiy madaniyat, tarbiya, tafakkur, renessans.*

КАРИМОВА Нилуфар,
младший научный сотрудник
Научно-исследовательского института культурологии
и нематериального культурного наследия

ПОНЯТИЕ ФЕСТИВАЛА И ЕГО НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуются происхождение понятия фестиваля, его культурно-социальная природа и процесс его научно-теоретизации. В рамках статьи понятие фестиваля анализируется не просто как развлекательное мероприятие, а как механизм демонстрации культурной идентичности общества, социальной консолидации и передачи ценностей из поколения в поколение. Также в исследовании освещены теоретические взгляды отечественных и зарубежных ученых на фестиваль, его типология и место в современном культурологии и искусствоведении. Результаты статьи служат теоретическим источником при планировании, изучении и оценке социокультурного воздействия фестивальных мероприятий.

Ключевые слова: *фестиваль, наука, мероприятие, общество, механизм, культурология, социальная культура, воспитание, мышление, ренессанс.*

KARIMOVA Nilufar
Junior Research Fellow
Research Institute of Cultural Studies
and Intangible Cultural Heritage

THE CONCEPT OF FESTIVAL AND ITS SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS

ANNOTATION

This article examines the origin of the concept of festival, its cultural and social nature, and the process of its scientific theorization. Within the scope of the article, the concept of a festival is analyzed not merely as an entertainment event, but as a mechanism for demonstrating the cultural identity of society, social consolidation, and the transmission of values from generation to generation. The study also highlights the theoretical views of domestic and foreign scholars on the festival, its typology, and its place in modern cultural studies and art history. The results of the article serve as a theoretical source for planning, studying, and evaluating the socio-cultural impact of festival events.

Keywords: *festival, science, event, society, mechanism, cultural studies, social culture, upbringing, thinking, renaissance.*

Festival insoniyatning tarixiy-madaniy taraqqiyoti jarayonida shakllangan murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy-madaniy hodisalardan biridir. U jamiyatning hayoti, qadriyatlar tizimi, estetik qarashlari, tarixiy xotirasi va jamoaviy o‘zligini namoyon etishning o‘ziga xos shakli sifatida uzoq tarixiy ildizlarga ega. Festival hodisasining o‘ziga xosligi shundaki, u bir vaqtning o‘zida madaniy, ijtimoiy, estetik, kommunikativ, marosimiy, tarbiyaviy, rekreativ, iqtisodiy va turistik funksiyalarni bajarishi mumkin.

Festival tushunchasini ilmiy jihatdan tadqiq etishda, avvalo, uning mazmunini oddiy bayram, tantana, ommaviy tadbir yoki madaniy tadbir tushunchalaridan farqlash zarur. Chunki festival o‘zining mazmuni, tashkiliy tuzilishi, davomiyligi, ishtirokchilar tarkibi, dasturiy ko‘lami va ijtimoiy-madaniy ta’sir doirasi bilan boshqa tadbirlardan ajralib turadi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda festival antropologiya, etnologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, san’atshunoslik va turizm kabi bir qator fanlar kesishmasida o‘rganilayotgan fenomen sifatida qaralmoqda. Festivallar bo‘yicha tadqiqotlarning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishi ham aynan uning murakkab va ko‘p qatlamli tabiati bilan izohlanadi.

Festival insoniyat sivilizatsiyasining dastlabki bosqichlaridan boshlab shakllanib kelgan ijtimoiy-madaniy hodisa bo‘lib, u diniy e’tiqodlar, hosildorlik bilan bog‘liq marosimlar, mavsumiy o‘zgarishlar va muhim tarixiy voqealarni nishonlash bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

Festivalning ilk ko‘rinishlari diniy marosimlar shaklida o‘tkazilgan. Masalan, qadimgi Misrda – Nil daryosi toshqinini nishonlash marosimlari, qadimgi Yunonistonda – Dionis xudosi sharafiga teatr festivallari (bu teatr san’ati rivojiga sabab bo‘lgan), shuningdek, qadimgi Rimda – Saturnaliya bayrami, quldorlik va ozodlik chegaralari vaqtincha bekor qilingan eng mashhur festivallar mavjud bo‘lgan. Ushbu festivallar orqali ma’lum bir millat va elat xudolarini rozi qilish, jamiyatni birlashtirish, hosildorlikni ta’minlash maqsad qilingan.[1, B.195]

O‘rta asrlarda festivallar asosan diniy va feodal bayramlar bilan bog‘liq bo‘lgan xristian dunyosida – Rojdestvo, Pasxa, All Saints Day, Musulmon dunyosida – Qurbon hayiti, Ramazon hayiti kabi festivallar ham qadimdan mavjud bo‘lgan. Bu davrda festivallar ko‘pincha marosim, namoz, xayriya va teatr unsurlari bilan boyitilgan. XVII-XIX asrlarga kelib esa festivallar asta-sekin san’at, adabiyot va milliy uyg‘onish harakatlari bilan bog‘liq holda rivojlanadi. Bu bosqichda festivallar madaniy-milliy identitetni mustahkamlash, xalq ijodini rivojlantirish, turli san’at turlarini qo‘llab-quvvatlash vositasiga aylana boshlagan.

Masalan Notting Hill Carnival (Angliya) – afro-karib madaniyati namoyishi, Bayreuth Festival (Germaniya) – R.Vagner operalari uchun tashkil etilgan. XX–XXI asrlarda festivallar ommaviy madaniyat, sayyohlik, marketing, san’at sanoati va xalqaro hamkorlik vositasi sifatida faol rivojlandi. Cannes Film Festival, Venice Biennale, Burning Man, Tomorrowland kabi festivallar madaniyatlararo aloqalarni kuchaytirishga xizmat qiladi. Milliy festival va qadriyatlar esa madaniy diplomatiya vositasiga aylangan. [2, B.178]

Festival – (fr. Festival – lot.festivus – bayramona, shod, quvnoq). San’atning musiqa, kino, teatr, sirk va boshqa sohalarida erishilgan eng yaxshi yutuqlar bo‘yicha vaqti-vaqti bilan o‘tkaziladigan tanlov, ko‘rikdan iborat ommaviy bayram, tantana, sayl.[3, B.340] Festival xalqlar bilimini oshirishga, bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Ushbu tushunchaning etimologik ildizlari yevropa tillariga ham borib taqalishini inobatga olsak, “festival” tushunchasi dastlab bayram, tantana, quvonch va ommaviy nishonlash ma’nolarini anglatgan. Biroq tarixiy taraqqiyot davomida festival tushunchasining mazmuni sezilarli darajada kengayib, u muayyan voqea yoki hodisani nishonlashdan tashqari, madaniy qadriyatlarni namoyish etish, ijodiy integratsiyani rivojlantirish, millat va elatlarni, turli ijtimoiy guruhlarni birlashtirish hamda jamoaviy identifikatsiyani shakllantirish vositasi sifatida ham qarala boshlandi.

Festivalning dastlabki shakllari insoniyatning qadimgi marosimiy va diniy amaliyotlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Qadimgi jamiyatlarda tabiat hodisalari, hosildorlik, fasllar almashinuvi, diniy e’tiqodlar, ajdodlarni xotirlash, harbiy g‘alabalar yoki hukmdorlar sharafiga tashkil etilgan ommaviy marosimlar jamoaning umumiy hayotini tartibga soluvchi muhim vositalardan biri bo‘lgan.

Bunday marosimlarda musiqa, raqs, qo‘shiq, teatrga xos tomosha elementlari, diniy rasm-rusumlar va ommaviy ishtiroki bir butun tizimni tashkil etgan.

Shu jihatdan festivalning tarixiy genezisini marosim – bayram – tomosha – ommaviy tadbir – zamonaviy festival ketma-ketligi asosida ko‘rib chiqish mumkin. Biroq bu jarayonni qat’iy va chiziqli evolyutsiya sifatida emas, balki turli davr va madaniy makonlarda o‘ziga xos shakllangan murakkab jarayon sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Madaniyat nazariyasi nuqtai nazaridan festivalni madaniyatning o‘zini namoyon etish va qayta ishlab chiqarish mexanizmlaridan biri sifatida talqin qilish mumkin. Chunki festival davomida jamiyat o‘zining muayyan qadriyatlarini qayta anglaydi, ularni namoyish etadi, avloddan-avlodga yetkazadi va zamonaviy sharoitga moslashtiradi. Shu ma’noda festival nafaqat mavjud madaniyatni aks ettiradi, balki uni faol ravishda yaratadi, qayta talqin qiladi va transformatsiya jarayoniga olib keladi.

Zamonaviy festival tadqiqotlarida festivalning an’anaviy funksiyalari bilan bir qatorda uning madaniy identifikatsiya va ijtimoiy birdamlikni shakllantirishdagi ahamiyatiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Festival mahalliy, milliy, etnik, diniy yoki professional guruhlarning o‘ziga xosligini ifodalash va boshqalarga namoyish etish imkonini beradi. Shu bilan birga, globallashuv sharoitida festival mahalliy madaniyatni global madaniy makonga olib chiqish, turli madaniyatlar o‘rtasida muloqot o‘rnatish vositasiga ham aylanmoqda. Tadqiqotchilar zamonaviy festivallarni mahalliylik va globallashuv, an’ana va modernizatsiya, identitet va madaniy xilma-xillik o‘rtasidagi munosabatlar namoyon bo‘ladigan makon sifatida talqin etadilar. Ushbu keng qo‘llaniladigan tushunchani ilmiy jihatdan ta’riflasak, u muayyan madaniy, san’at, tarixiy, diniy, milliy, etnik, professional yoki ijtimoiy qadriyatlarni jamoaviy tarzda namoyon etish, nishonlash, targ‘ib qilish va qayta talqin etishga qaratilgan, ma’lum vaqt va makonda tashkil etiladigan, ishtirokchilar hamda tomoshabinlarni birlashtiruvchi ko‘p funksiyali ijtimoiy-madaniy hodisadir.

Yana bir jihatni inobatga olish kerakki, festival murakkab ijtimoiy-madaniy tizim sifatida turli fanlar kesishmasida tadqiq etiladi. Masalan, antropologik yondashuv festivalni inson va jamoaning madaniy xatti-harakatlari bilan bog‘liq hodisa sifatida o‘rganadi. Ushbu yondashuv doirasida festival jamiyatning marosimlari, urf-odatlari, an’analari va kollektiv xotirasini ifodalovchi shakl sifatida qaraladi. Festivalning antropologik mohiyati, avvalo, “birgalikda ishtirok etish” hodisasida namoyon bo‘ladi. Festival tomoshabin va ijrochi, tashkilotchi hamda ishtirokchi o‘rtasidagi an’anaviy chegaralarni qisman yumshatib, faol ijtimoiy munosabatlar uchun makon yaratadi. Sotsiologik yondashuvda esa festival turli ijtimoiy guruhlar, institutlar va subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni tashkil etuvchi ijtimoiy makondir. Festivalni tashkil etishda davlat va nodavlat tashkilotlari,

homiylar, ijodiy jamoalar, madaniyat muassasalari, mahalliy aholi, turistlar, ommaviy axborot vositalari va boshqa subyektlar ishtirok etishi mumkin. Shu jihatdan festivalni ijtimoiy institut sifatida mutlaq va universal tarzda emas, balki institutsionallashgan ijtimoiy-madaniy amaliyot sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan aniqroq bo‘ladi. Chunki har qanday festivalning o‘zi mustaqil ijtimoiy institut bo‘lavermaydi. Ammo muntazam faoliyat yuritadigan, aniq tashkiliy tuzilma, me’yorlar, ishtirokchilar, maqsad va funksiyalarga ega bo‘lgan festival tizimi institutsional xususiyat kasb etishi mumkin. Zamonaviy sotsiologik tadqiqotlarda festivallar tashkilotchilar, moliyalashtiruvchi institutlar, ishtirokchilar, mahalliy aholi va mehmonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida tahlil etilmoqda.

Keyingi yondashuvlardan biri semiotik bo‘lib, bunda festivalni ramzlar, belgilar va ma’nolar tizimi ekani tushuniladi. Festivalning sahna ko‘rinishlari, musiqa, liboslar, raqslar, marosimlar, dekoratsiyalar, logotiplar, bayroqlar, timsollar va boshqa vizual hamda audiovizual elementlari muayyan madaniy ma’nolarni ifodalaydi. Bunda jamiyatning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari, estetik ideallari va zamonaviy dunyoqarashi turli belgilar orqali ifodalanadi. Kommunikativ yondashuvda esa festival madaniyatlararo va ijtimoiy kommunikatsiyaning samarali vositalaridan biri ekanligi, xususan, xalqaro festivallar turli davlatlar, xalqlar va madaniyatlar vakillarini yagona madaniy makonda yuzlashtiradi. Ushbu jarayonlarda festival madaniy tajriba almashinuvini; ijodiy hamkorlikni; madaniyatlararo muloqotni; milliy madaniyatni xalqaro miqyosda targ‘ib etishni; stereotiplarni kamaytirishni; madaniy xilma-xillikni anglashni ta’minlovchi muhim kommunikativ platformaga aylanadi. Yana bir muhim yondashuvlardan biri bu fenomenologik yondashuvdir. Bunda festivalni insonning bevosita madaniy tajribasi nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Festivalda ishtirok etish insonda jamoaga mansublik, umumiy kayfiyat, estetik zavq, emotsional birdamlik va hamjihatlikda mavjudlik hissini paydo qiladi.

Ilmiy manbalarga tayanadigan bo‘lsak, Durkheim 1912-yillarda festivallarni ijtimoiy birdamlik va kollektiv ongni tiklovchi marosimlar sifatida tahlil qilgan. Viktor Turner (1969) esa ularni “liminallik” holati deb izohlab, festival davomida insonlar kundalik ijtimoiy maqomlardan chiqib, communitas – tenglik va yaqinlik muhitida harakat qilishini ta’kidlaydi.[4, B.260] Schechner (2002) esa festivalni ijtimoiy performans, ya’ni san’at va ijtimoiy ifoda vositasi sifatida baholagan.

O‘zbekiston misolida olib borilgan tahlil festival hodisasi amaliyotda ham keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. “Sharq taronalari”, “Lazgi”, “Navro‘z” kabi festivallar orqali milliy madaniyat ommalashtirilmoqda, yosh avlodda estetik va tarixiy ong shakllanmoqda, hududiy turizm va iqtisodiy faollik rag‘batlantirilmoqda. Turizm qo‘mitasi, Madaniyat vazirligi va xalqaro

tashkilotlarning ma'lumotlari festival faoliyatining samaradorligini amaliy dalillar bilan asoslaydi.

Shuningdek, festivallar zamonaviy raqamli kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg'unlashib, keng auditoriyalarga yetib borishga erishmoqda. Mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va video platformalar orqali festival kontenti global darajaga chiqmoqda. Bu esa festivalni nafaqat an'anaviy madaniy jarayon, balki yangi davrning madaniy siyosiy vositasiga aylantirmoqda. Festival hodisasi madaniyat siyosatining kuchli strategik elementi bo'lib, u orqali milliy identitet mustahkamlanadi, ijtimoiy uyg'unlik ta'minlanadi, iqtisodiy faollik ortadi va xalqaro hamkorlik kengayadi.

Festival – bu nafaqat madaniy-hunar ko'rgazmasi, balki ijtimoiy uyg'unlikni, madaniy merosni saqlash va zamonaviylashtirish, insonlar ongida musbat ruhiy holat uyg'otish vositasidir. Ilmiy yondashuv festival fenomenini chuqurroq anglashga, uni zamon talablari asosida rivojlantirishga xizmat qiladi. Festival hodisasi faqat bayram emas, balki ijtimoiy-madaniy, siyosiy va estetik jihatlarga ega bo'lgan murakkab hodisadir. O'zbekiston ilm-fanida ham bu mavzu atroflicha o'rganilmoqda, lekin zamonaviy yondashuv – ya'ni global festivallar, marketing aspektlari, madaniy turizmga ta'siri kabi yo'nalishlarda qo'shimcha izlanishlar kerak. Ilmiy ishlarda sotsiologiya, san'atshunoslik, psixologiya va iqtisod fanlarini birlashtirgan interdisiplinar yondashuv keng qo'llanilmoqda.[5, B.205]

Hozirgi globallashuv va madaniy xilma-xillikning kuchayib borayotgan sharoitida madaniy identitetni saqlab qolish, milliy qadriyatlarni ommalashtirish va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash zaruriyati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, festivallar xalqning tarixiy xotirasini jonlantiradi, milliy madaniyatning estetik ko'rinishlarini targ'ib qiladi, turizm va iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladi, ijtimoiy qatlamlar va yosh avlodlar o'rtasida madaniy aloqani mustahkamlaydi.

Ayniqsa, O'zbekiston kabi boy madaniy-tarixiy merosga ega bo'lgan davlatda festivallar – bu madaniyat siyosatining muhim vositasi hisoblanadi. Shu sababli, festival tushunchasini chuqur o'rganish, uning ilmiy-nazariy asoslarini ochib berish, zamonaviy yondashuvlar bilan boyitish – madaniyatshunoslik, san'atshunoslik va ijtimoiy fanlar uchun dolzarb masalalardan biridir.

Festivallar ijtimoiy birdamlik va uyg'unlikni ta'minlovchi omil sifatida xizmat qiladi. Ular orqali jamiyat a'zolari o'zaro yaqinlashadi, madaniy muloqot shakllanadi. Festivallar milliy urf-odatlar, folklor va badiiy qadriyatlarni yangi avlodlarga yetkazadi. Ular madaniy merosni saqlash va zamonaviylashtirishda muhim o'rin tutadi. Festival orqali madaniy turizm rivojlanadi, mehmonxona, transport, xizmat ko'rsatish tarmoqlari faollashadi. Bu esa hududiy iqtisodiy o'sishga va ish o'rinlarining ko'payishiga olib keladi. Talabalar, san'atkorlar, tadqiqotchilar festivalda ishtirok etib amaliy bilim va tajriba orttiradilar. Festival estetik didni

rivojlantiradi, ijodiy tafakkurni rag‘batlantiradi. Festival fenomeni ko‘p fanli o‘rganishga imkon beradi – sotsiologiya, tarix, psixologiya, san’atshunoslik, iqtisod fanlari orqali chuqur tahlil qilish mumkin. Bu esa ilmiy izlanishlar uchun keng maydon yaratadi. Bu borada olima, madaniyatshunos va folklorshunos Ziyodova Matluba o‘zining “Folklor festivallarining badiiy-estetik tahlili” nomli ishida folklor festivallarini xalq og‘zaki ijodi, marosimlar va milliy liboslar orqali badiiy tafakkurni shakllantiruvchi vosita sifatida ko‘radi. Festivalda estetik qadriyatlar jonlanadi (raqam, rang, obrazlar orqali). “Asrlar sadosi” festivalini tirik muzey deb ataydi. Festivalni madaniy kod sifatida tushuntiradi – ya’ni jamiyat o‘zini festival orqali anglaydi. Estetik tahlil orqali festivalning madaniy g‘oyaviy qatlamini yoritganligini ko‘rishimiz mumkin.[6, B.178]

Shuningdek, yana bir tadqiqotchi Ismoilov Dilmurodning “Milliy festival va bayramlarning ijtimoiy funksiyalari” nomli ilmiy ishlarida festival xususida, bu ijtimoiy institut bo‘lib, u jamiyatda ruhiy barqarorlik, ijtimoiy birlashuv, madaniy identitet shakllanishiga xizmat qilinishini ko‘rishimiz mumkin. Ilmiy tadqiqot Ishida olib borilgan ilmiy izlanishlar O‘zbekistonda festival orqali xalqning ijtimoiy xotirasi jonlantirishini ko‘rishimiz mumkin. Festival ijtimoiy nizolarni vaqtincha yumshatadi, barqarorlikni mustahkamlaydi. Ayniqsa, Navro‘z umumxalq bayrami orqali qadimiy mentalitet tiklanmoqda. Tadqiqot ishdia festivalni sotsiologik funksiyalar asosida ilmiy tahlil qilgan.[7, B.196]

“Navro‘zning madaniy-ma’naviy asoslari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot Ishida Murod Xudoyberdiyevning Navro‘z O‘zbek xalqi madaniyatida ekologik, astronomik, falsafiy va axloqiy qatlamlarga ega bayram sifatida tahlil qilinadi. Navro‘z faqat madaniy emas, balki dunyoni idrok etish shakli sifatida bayram orqali tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlik aks etadi. Navro‘zda xalqning qadimiy urf-odatlari tiklanib, yosh avlodga estetik meros uzatiladi. Festivalni ekologik-falsafiy kontekstda tahlil qilganlik holati noyob ish sifatida baholash mumkin.

Ilmiy tadqiqotchi Gulnora Karimovaning “Globalizatsiya sharoitida an’anaviy festivallarning transformatsiyasi” mavzusidagi ilmiy ishida an’anaviy festival va bayramlar global muhitda ommaviylashtirish, tijoratlashuv, zamonaviy identitet qurish vositasiga aylanganligi tadqiq qilingan. Tadqiqot Ishida “Sharq taronalari” festivali global madaniy diplomatiya vositasiga aylangan. Global brendlashuv jarayonida milliy festival o‘z mohiyatini saqlashi lozim. Festivalda raqamli media, brending, PR texnologiyalari ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy tadqiqot ishining ahamiyati festivalni zamonaviy kommunikatsion jarayonlar bilan bog‘lagan yondashuv hisoblanadi.[8, B.242]

Yana bir tadqiqot ishini o‘rganish jarayonida Dostonbek Rahmatovning “O‘zbekiston xalqaro festivallarining turizm va madaniyat siyosatidagi roli” mavzusidagi ilmiy ishda festival O‘zbekistonning madaniy brendini yaratish, xorijiy

turistlar oqimini oshirish va hududiy iqtisodiy faollikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanganligi ko'rishimiz mumkin. Festival asosida xizmatlar sohasi (mehmonxona, transport, savdo) faoliyati kuchayadi. Mahalliy hunarmandchilik va kulolchilik rivojlanyotganligi va festivallar orqali O'zbekiston yumshoq kuch siyosatini amalga oshirmoqda.

Festivallar zamonaviy dunyoda madaniyatni ifodalovchi, jamiyatni birlashtiruvchi va milliy qadriyatlarni ommalashtiruvchi qudratli vosita bo'lib qolmoqda. Ularni o'rganish va tahlil qilish nafaqat ilmiy jabhada, balki amaliy siyosiy va ijtimoiy hayotda ham katta ahamiyatga ega.

Festival – bu ijtimoiy-madaniy institut bo'lib, u turli jamiyatlarda tarixiy, diniy, estetik va ijtimoiy funksiyalarni bajargan. Festival atamasi lotincha *festum* (bayram) so'zidan olingan bo'lib, qadimgi Rim va Gretsiyada u diniy marosimlar va hosildorlik bilan bog'liq bo'lgan. Ilmiy manbalarda festival quyidagi asosiy funksiyalarni bajaruvchi ijtimoiy institut sifatida qaraladi (Durkheim, 1912; Turner, 1969):

Kollektiv xotirani jonlantirish

Madaniy merosni uzatish

Emotsional bo'shashish (katarsis) yaratish

Jamoaviy identitetni mustahkamlash

Durkheim festival va diniy marosimlar orqali ijtimoiy birdamlik (solidarity) kuchayishini asoslaydi. Festivallar odamlarni ruhiy jihatdan birlashtirib, jamoaviy ong (collective consciousness) ni mustahkamlaydi.[9, B.418] Turner festivalni "liminal" – o'tish holati deb tushuntiradi. Unda ishtirokchilar ijtimoiy rollarini vaqtincha chetga surib, tenglik, erkinlik va communitas tuyg'usini boshdan kechiradilar.[10, B.240]

Bugungi kunda festivallar nafaqat yirik shaharlar va tarixiy markazlarda o'tkazilmoqda balki chekka hududlarning madaniy salohiyatini ochib berish imkoniyati bilan ham belgilanmoqda. Shu boisdan, tog'li va qishloq hududlarida festivallarni tashkil etish nafaqat turistik oqimni kengaytirish, balki mahalliy aholining madaniy jarayonlardagi ishtirokini ta'minlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va an'anaviy qadriyatlarni iqtisodiy resursga aylantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi Chopiq qishlog'i ana shunday istiqbolli hududlardan biri hisoblanadi. Tog' bag'rida joylashgan mazkur hudud tabiiy landshafti, an'anaviy turmush tarzi, mahalliy taomlar madaniyati, dehqonchilik va chorvachilik an'analari bilan gastronomik turizm uchun katta imkoniyatlarga ega. Biroq, chekka hududlarda yashovchi aholining zamonaviy madaniy jarayonlar, festival harakati va turizm imkoniyatlari haqidagi xabardorligi ko'p hollarda yetarli darajada emas. Bu esa madaniy resurslarning to'liq namoyon bo'lmasligiga sabab bo'lmoqda.

Shunday ekan, Chopiq qishlog‘ida “Chopiq gastronomik festivali” nomli konsepsiya asosida festival tashkil etish taklifini ilgari surmoqchiman. Mazkur festival orqali hududning milliy taomlari, qadimiy tayyorlash usullari, oilaviy oshpazlik an’analari, ekologik toza mahsulotlar, xalq hunarmandchiligi va tog‘li hudud turmush madaniyatini keng namoyish etish imkoniyati yaratiladi. Bunday festivalning asosiy ahamiyati shundaki, u madaniyat va turizm o‘rtasidagi bog‘liqlikni mahalliy darajada ta’minlaydi. Ya’ni, aholi faqat tomoshabin sifatida emas, balki festival jarayonining asosiy ishtirokchisi va madaniy meros tashuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Mahalliy xonadonlar milliy taomlar tayyorlash, mehmon qabul qilish, hunarmandchilik mahsulotlarini namoyish etish orqali turizm iqtisodiyoti ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

Gastronomik festivalning yana bir muhim jihati shundaki, uning nomoddiy madaniy merosni saqlashdagi ahamiyatidir. Milliy taom tayyorlash usullari, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan retseptlar, dasturxon madaniyati va mehmondo‘stlik an’analari xalqning madaniy xotirasi hisoblanadi. Ularni festival formatida namoyish etish mazkur qadriyatlarni saqlash va yosh avlodga yetkazishning zamonaviy usuli bo‘lib xizmat qiladi. Chopiq qishlog‘ida tashkil etiladigan gastronomik festival hududiy brend sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Samarqand tarixiy meros va xalqaro madaniy muloqot markazi sifatida, Boysun etnografik meros hududi sifatida tanilsa, Qashqadaryoning tog‘li qishloqlari ham ekologik, gastronomik va etnomadaniy turizm yo‘nalishida o‘z brendini shakllantirishi mumkin.

Bunday tashabbus festivallarni faqat markaziy shaharlarda o‘tkazish amaliyotidan voz kechib, ularni hududlarning ichki salohiyatini ochib beruvchi vosita sifatida rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Chunki zamonaviy turistlar ko‘pincha standartlashgan tomoshalardan ko‘ra, haqiqiy hayot tarzi, mahalliy taomlar, tabiiy muhit va o‘ziga xos madaniy tajribaga qiziqmoqda. Shu sababli kelgusida O‘zbekiston hududlarida o‘tkaziladigan gastronomik festivallarga alohida e’tibor qaratish, ularni tog‘li va qishloq hududlarida tashkil etish, mahalliy aholini ushbu jarayonga keng jalb qilish mamlakatda barqaror turizmni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biriga aylanishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, festivallar – bu o‘tmish merosi, hozirgi ehtiyoj va kelajak avlod o‘rtasidagi madaniy ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Ularni ilmiy asosda o‘rganish va rivojlantirish esa madaniyatshunoslik, san’atshunoslik va sotsiologiya fanlari uchun ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb yo‘nalishdir. O‘zbekistonda festival madaniyatining rivoji nafaqat madaniy-ma’naviy yuksalish, balki iqtisodiy, diplomatik va ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanmoqda. Festivallar milliy madaniyatning global maydonda tanilishiga, turizm industriyasining rivojlanishiga va jamiyatdagi birlikning mustahkamlanishiga katta

hissa qo‘shmoqda. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va raqamli platformalarning joriy qilinishi festivallarni yangi bosqichga olib chiqib, ularni xalqaro standartlarga moslashtirmoqda.

Festival fenomenini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish zamonaviy madaniyatshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zero, bugungi globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, madaniy almashinuv jarayonlarining jadallashuvi va madaniyatlararo muloqotning kengayishi sharoitida festivallarning jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotidagi o‘rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Festival tushunchasi tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘zining dastlabki marosimiy va bayramona mazmunidan rivojlanib, bugungi kunda san’at, madaniyat, ta’lim, turizm, kreativ industriyalar, madaniy diplomatiya va hududiy rivojlanish kabi ko‘plab yo‘nalishlarni o‘zida mujassam etuvchi murakkab ijtimoiy-madaniy hodisaga aylangan. Shu bois festival fenomenini faqatgina ommaviy madaniy tadbir yoki ko‘ngilochar jarayon sifatida baholash uning mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berish uchun yetarli bo‘lmaydi. Izlanishlar natijasida shuni anglash mumkinki, festival muayyan vaqt va makonda tashkil etiladigan, umumiy g‘oya yoki madaniy qadriyat atrofida turli ijtimoiy guruhlar, ijodkorlar, san’atkorlar, mutaxassislar va tomoshabinlarni birlashtiradigan, madaniy tajriba almashinuvi va kommunikatsiyani ta’minlaydigan murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xaitova Z. Folklor va milliy an’ana. Buxoro: BuxDU, 2020. – 195 b.

2. Qodirova G. Zamonaviy PR va madaniyat tadbirlarida marketing. Toshkent: Innovatsiya, 2021. – 178 b.

3. O‘ 16 O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 ga yaqin so‘z va so‘z birikmasi. J. IV. Tartibot - Shukr / Mas’ul muharrir A.Madvaliyev. - T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. - 340 бет.

4. Yuldashev Sh. *O‘zbek xalq ijodiyoti va bayramlari.* Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 260 b.

5. Mirzayev O. *Folklor va an’ana: nazariya va amaliyot.* Samarqand: Zarafshon, 2017. – 205 b.

6. Qodirova G. *Zamonaviy PR va madaniyat tadbirlarida marketing.* Toshkent: Innovatsiya, 2021. – 178 b.

7. Jo‘rayev A. O‘zbekiston madaniy merosi va festivallar. Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – 196 b.

8. Karimova N. Madaniyatshunoslik asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 242 b.

9. Durkheim, É. The Elementary Forms of Religious Life. Parij: Félix Alcan, 1912. – 418 p.

10. Turner, V. The Ritual Process: Structure and Anti-Structure. Chikago: Aldine Publishing, 1969. – 240 p.